



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 9-iyul

VII-14-83-5-0-K/25

Navoiy viloyati

Mahallalar faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan viloyatidagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash hamda o‘zgartirish kiritish masalalari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagи “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagи “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 294-sonli qarori talablari asosida, viloyat hokimining 2025-yil 20-martdagи 01-02/171-sonli viloyati hokimligi huzuridagi Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish masalalari bo‘yicha idoralararo doimiy komissiyasining bayonnomasi, O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Navoiy viloyati boshqarmasining 2025-yil 20-martdagи 01/03/268-sonli xati, viloyat hokimining 2025-yil 19-iyundagi viloyati hokimligi huzuridagi Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish masalalari bo‘yicha idoralararo doimiy komissiyasining xulosasi hamda bildirilgan taklif, fikr-mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyatni to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 16², 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari viloyat Kengashi,

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagи “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 294-sonli Qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyati hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish masalalari bo‘yicha

idoralararo doimiy komissiyaning xulosasi bilan berilgan manzilli takliflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyati boshqarmasi "Mahalla yettiligi"ning viloyat boshqarma boshliqlari hamda tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

Navoiy viloyatidagi ayrim mahallalar birlashtirilishining mazmun mohiyati to'g'risida aholi orasida tushuntirish ishlarini olib borish; birlashtirilayotgan mahallalarni nomlashda aholining fikrini inobotga olgan holda o'rnatilgan tartib bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish;

mahallalarni birlashtirish hisobiga bo'shayotgan mahalla fuqarolar yig'ini balansidagi binolaridan samarali foydalanish choralarini ko'rish;

bunda, bo'shayotgan binolarda aholi uchun guzarlar, kutubxonalar va boshqa madaniy maskanlar faoliyatini yo'lga qo'yish;

mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasiga foyda keltirish maqsadida binoni hududiy tadbirkorlarga ijaraga berish va ish o'rinalarini yaratish;

mahalliy hokimliklar bilan birgalikda fuqarolarni ro'yxatga olish bilan bog'liq masalalarda hamkorlik qilish choralarini ko'rsin.

4. O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyati boshqarmasi, viloyat Adliya boshqarmasi, viloyat Davlat soliq boshqarmasi, tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

Mahalla boshqarmasi, tuman (shahar) bo'limlari qoshida viloyat Adliya va Davlat soliq boshqarmasi hamda hududiy bo'limlaridan mas'ul biriktirilgan holda mahallalarni tugatish komissiyalarini tuzish;

komissiya tomonidan belgilangan tartibda ixchamlashtirilayotgan (birlashayotgan) mahalla fuqarolar yig'inlarining hujjatlarini rasmiylashtirish choralarini ko'rsin.

5. O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyati boshqarmasi, "O'zarxiv" agentligining viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi, viloyat Ichki ishlar boshqarmasi, tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

Ixchamlashtirilayotgan mahalla fuqarolar yig'inlarining tegishli hujjatlarini Arxivga qabul qilish choralarini ko'rish;

shuningdek, ixchamlashtirilayotgan mahalla fuqarolar yig'inlarining muhr va shtamplarni ichki ishlar bo'limlari tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirsin.

6. Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi, Davlat kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi:

birlashtirilgan mahallalar chegaralarini aks ettirgan va tavsiflagan holda, ularni birlashtirish bo'yicha xaritalarini chizish hamda fuqarolarning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish;

ixchamlashtirilayotgan mahalla fuqarolar yig'ini inshootlarni birlashtirilgan mahalla fuqarolar yig'inlariga balansiga berish choralarini ko'rsin.

7. Davlat kadastrlar palatasining viloyat boshqarmasi O'zbekiston mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasining tuman va shahar bo'limlari tomonidan kelishilib tasdiqlangan, har bir mahallaning chegaralarini qaytadan ko'rib chiqib, yakuniy chegaralarni belgilash hamda qonunchilikka muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashiga tasdiqlash uchun kiritsin.

8. O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyati boshqarmasi, viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, viloyat Oila va xotin-qizlar

boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi, viloyat ichki ishlar boshqarmasi, viloyat Davlat soliq boshqarmasi, Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi, tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

ixchamlashtirilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining hodimlariga belgilangan tartibda ogohlantirish xatlarini berish, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq kompensatsiya pullarini ajratish;

ixchamlashtirilgandan so‘ng mahalla hodimlarini birlashtirilgan mahallaga belgilangan tartibda tanlov asosida ishga qabul qilish va qolgan hodimlarini esa bandligini ta’minalash choralarini ko‘rsin.

9. Viloyat hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish masalalari bo‘yicha idoralararo doimiy komissiyasiga:

Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish, tugatish va ularning chegaralarini belgilash hamda bir-biriga qo‘silib ketayotgan mahallaning birini nomini saqlab qolinishi yoki yangi nom berilishida mahalla aholisining takliflari inobatga olinsin.

Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish, tugatish va ularning chegaralarini belgilash jarayonida mahalla aholisi tomonidan kelib chiqadigan nizoli masalalarni qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqish vazifasi yuklatilsin.

10. Viloyat hokimining matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi ushbu qarorni matbuotda e’lon qilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rnbosarlari (R.Sulaymonov, J.Xodjayev) va xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



ALIYEV G‘OFIR
QUVATOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining
 2025-yil 9-iyuldagi
 VII-14-83-5-0-K/25 -son qaroriga
 1-ilova

**Navoiy viloyatidagi ixchamlashadigan va birlashtiriladigan mahalla fuqarolar yig‘inlari to‘g‘risida
 MA’LUMOT**

№	Tuman (shahar) nomi	Birlashtiriladigan mahalla nomi	Shundan				Birlashtir- iladigan mahalla nomi Xonodon soni	shundan				Mahalla nomi	Birlashgandan so‘ng			
			Hududi (hektar)	Aholi soni	Hududi (hektar)	Aholi soni		Hududi (hektar)	Aholi soni	Xonodon soni	Oila soni		Hududi (hektar)	Aholi soni	Xonodon soni	Oila soni
1	Navoiy shahar	"G‘alaba" MFY	23,2	5542	1633	1757	"Zarafshon" MFY	32	4830	1951	1721	"Zarafshon" MFY	45,2	8156	2951	2778
							"O‘zbekiston" MFY	65,5	5506	1802	2025	"O‘zbekiston" MFY	75,5	7722	2502	2725
2	Navoiy shahar	"Do‘stlik" MFy	12	3850	1155	1326	"Xumo" MFY	26,3	5404	2021	1768	"Xumo" MFY	28,3	6805	2371	2203
							"Oltin Vodiy" MFY	24	5458	1925	1874	"Oltin Vodiy" MFY	29	7108	2455	2310
							"Matonat" MFY		6450	1480	1226	"Matonat" MFY	25	7250	1739	1680
3	Navoiy shahar	"Gulzor" MFY	8,3	4212	1012	1210	"Turon" MFY	14,2	4390	1489	1578	"Turon" MFY	19,5	6496	2199	2118
							"Mustaqillik" MFY	14	5118	1397	1539	"Mustaqillik" MFY	17	7224	1903	2144
4	Karmana tuman	Alisher Navoiy MFY	152,2	2743	562	676	Mirsaid Bahrom MFY	72,2	2705	503	749	Mirsaid Bahrom MFY	224,4	5448	1065	1425
5	Karmana tuman	"Gulobod" MFY	110	2700	560	742	"Kalovot" MFY	334	4522	1007	1253	"Kalovot" MFY	444	7222	1567	1995
6	Karmana tuman	"Buyuk ipak yuli" MFY	150	4115	1139	1159	"Sardoba" MFY	600	2458	543	735	"Sardoba" MFY	750	6573	1682	1894
7	Karmana tuman	"Zarafshon" MFY	50	3901	820	1032	"Talkok" MFY	470	5114	1108	2004	"Talkok" MFY	520	9015	1928	3036
8	Konimex tuman	Sho‘rko‘l MFY	3117	1760	352	527	To‘qqiztepa MFY	7455,6	3816	860	641	To‘qqiztepa MFY	520	5576	1212	1168
9	Konimex tuman	Do‘stlik MFY	589,24	1881	514	624	"Birlik" MFY	839,56	4149	1162	820	"Birlik" MFY	520	6030	1676	1444
10	Qiziltepa tuman	"Iftixor" MFY	618,53	2680	605	779	"Konsurun" MFY	38039,93	1679	352	545	"Konsurun" MFY	38658.46	4359	957	1324

11	Qiziltepa tuman	Bunyodkor MFY	88,8	2405	618	755	Furqat MFY	149,59	2071	514	639	Furqat MFY	238,39	4476	1132	1394
12	Qiziltepa tuman	"Navqiron" MFY	2455,31	2605	536	738	"G‘oyibon" MFY	2760,88	2678	518	721	"G‘oyibon" MFY	5216,19	5283	1054	1459
13	Qiziltepa tuman	"Buyuk ipak yo‘li" MFY	208,5	2785	604	870	"Sufiyon" MFY	883,55	3388	761	906	"Sufiyon" MFY	1092,5	6173	1365	1776
14	Qiziltepa tumani	"Rabot" MFY	564,2	3056	610	855	"Zarmetan" MFY	688,95	2602	541	739	"Zarmetan" MFY	1253,15	5658	1151	1594
15	Nurota tuman	"Turko" MFY	24,7	1274	260	420	"Saydato" MFY	23,2	2335	180	282	"Saydato" MFY	47,9	3609	440	702
16	Nurota tuman	"Shaxriston" MFY	86,4	1228	231	369	Alisher Navoiy MFY	31,9	2463	235	428	Alisher Navoiy MFY	118,3	3691	466	797
17	Nurota tuman	"Istiqbol" MFY	117,1	2680	460	535	"Oqmachit" MFY	253,5	5477	439	607	"Oqmachit" MFY	370,6	8157	899	1142
18	Navbahor tuman	Dul dul MFY	86,5	3354	357	414	Armijon MFY	344,5	1882	420	552	Armijon MFY	431	5236	777	956
19	Navbahor tuman	Vomitan MFY	79,6	2098	506	597	Xashman MFY	397,2	2341	468	526	Xashman MFY	476,8	4439	974	1123
20	Navbahor tuman	Mirzo Ulug‘bek MFY	176,652	2535	463	658	Qalqonota MFY	110	1986	458	650	Qalqonota MFY	176,652	4521	921	1308